

**“MAKTABGACHA TA'LIM
– MAKTAB – OLIY TA'LIM”
KONSEPSIYASI: MUAMMO,
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR**

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLARI

2022-yil, 9-aprel

Buxoro – 2022

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM FAKULTETI
BOSHLANG‘ICH TA‘LIM METODIKASI KAFEDRASI**

**MAKTABGACHA TA‘LIM – MAKTAB – OLIY
TA‘LIM” KONSEPSIYASI: MUAMMO, YECHIMLAR VA
ISTIQBOLLAR**

XALQARO ILMY-AMALY ANJUMANI

MATERIALLARI

2022-yil, 9-aprel

Buxoro – 2022

sili kasalligining oldini olish va davolashda, shuningdek, ayrim oshqozon-ichak kasalliklarida tavsiya qilinadi. Osiyo, qisman Yevropa mamlakatlarida qimiz ko'p tayyorlanadi [6, 170].

QIMIZ – biya (kamdan-kam sigir va tuya) sutini achitib tayyorlanadigan ichimlik. Tarkibida 2-5% oqsil, 1-2% yog', 3,5-4,8% qand, vitaminlar, fosfor va kalsiy, 0,6-1,2% sut kislotasi hamda 1-3% spirt bor. Qimiz bilan davolashda biya sutidan tayyorlangan qimizdan foydalaniladi [8, 486].

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida *qimīz* – qimiz, bu yilqi suti bo'lib, uni sanoch meshlarga solib achitib ichiladi [3, 344].

Qimiz – qimizning shifobaxshligi juda qadimdan ma'lum. O'zbekistonning cho'l va tog' zonalarda Qozog'iston, Qirg'iziston, Orenburg, Boshqirdiston va kavkazda qimiz sevib iste'mol etib kelinadi. Qimiz shifobaxsh ichimliklar bo'ib, uning tarkibida vitaminlardan A, B, C, sut kislotasi, qand va karbonat anhidrid bor. Qimizda sut kislotasi borligi tufayli tarkibidagi oqsil, yog' va turli qand moddalari yaxshi hazm bo'ladi, ishtaxani ochadi. Qimiz tomir urishini yaxshilaydi, qon bosimini ko'taradi. Shuningdek, qimiz qon shaklli tanachalarining yangilanishiga, me'da-ichak yo'llari faoliyatiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Kamquvvat va kamqonlik tufayli ozib ketgan kishilarga qimiz juda foydali. Qimizni yurak porogi bor va qon bosimi baland kishilar ichmasligi kerak [3, 3]. "Farg'onaliklar nafaqat mol, qo'y va echki, balki imkon qadar ot (biya) sutidan ham foydalanganlar. Chorvador xalqlarning eng qadimiy ichimliklaridan biri hisoblangan "qimiz" asosan biya sutidan tayyorlangan [1,38]. Mazkur maqolda *sava* – katta mesh. Biya suti pishitilayotgan paytda toshib ketmasin uchun, sava juda limmo-lim qilib to'ldirilmaydi. Biya suti shu savada pishitib, achitilgandan keyingina qimiz bo'ladi. "Qimiz savadan oshib, toshib ketmaganidek, bir kishining chamasi (mo'ljal) boshqa bir kishining chamasidan juda ham o'zib ketolmaydi. Sen bilganni boshqa ham biladi, o'zingni juda bilag'on olma" deyilmoqchi [6, 362]. Kuzatishlar o'zbek xalq paremlarida *bo'za*, *qimiz* kabi ichimlik nomlari faol qo'llanganligini ko'rsatdi. Faktik ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, bo'za ichimligi miloddan avvalgi 9000-8000 yillarda Mesopotamiyada keng tarqalgan, Bolqon mamlakatlari, Kavkaz, Turkmaniston, Qirg'izistonda sanoat usulida ishlab chiqarilgan, O'rta Osiyo xalqlari juda qadim zamonlardan buyon bu ichimlikni tayyorlagan va to'yimli, foydali chanqovbosdi mahsulot sifatida undan foydalangan. Qimiz ham Geradotning ma'lumot berishicha, mil. av.V asrda skiflarda eng yaxshi ichimlik sifatida iste'mol qilingan, Bo'za xalqning ijtimoiy turmush tarziga singib ketganligi bilan ajralib turgan. Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq paremlari o'z bag'rida etnosga xos xususiyatlarni saqlashi bilan ham ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Абдулахатова Н., Тошпўлатов У., Журабаева У., Махмуд Қошғарийнинг "Девону луғотит турк" асаридаги лексик бирликлар тадқиқи. – Т., Янги аср авлоди. 2013. – 69 б.
2. Энциклопедик луғат. 2 томлик. 1. Н-Ҳ. Ўзбек совет энциклопедияси бош редакцияси. Т: 1988. – 544 б.
3. Қошғарий М. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). Уч томлик. I том. – Т., Ўзбекистон ССР Фанлар академияси, 1960. – 500 б.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Т., Университет., 2000. – 600 б.
5. Шамсиев П. Навоий асарлари луғати. – Т., Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1972. – 784 б.
6. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. – 448 б.
7. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12 жилдлик, Қ. – Т., Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б.148.

Internet saytlari

8. <http://myuldashev.blogspot.com/2016/03/boza.html>
9. https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20Q%20harfi.pdf
10. <https://shifo.uz/article/qimiz-haqida>
11. https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20I%20harfi.pdf

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI BOSHQARISH

Sh.M.Farmonova

Buxoro davlat universiteti

Maktab o'quv protsessini boshqarish – o'quv protsessining mazmuniga, tizimiga va samaradorlikni shart-sharoitlariga rejalashtirgan ta'sir ko'rsatish, hozirgi zamon talabiga javob beradigan, nazariy va amaliy tamondan o'qituvchi-mutaxassis tayyorlash maqsadidir.

O'quv protsessini boshqarish - bu o'qituvchi-shaxsni shakllantirish uchun optimal ichki va tashqi sharoitlarni tashkil etish, o'quv ishni hamma tur va shakllaridan, ta'limni tashkiliy imkoniyatlardan ratsional foydalanish.

O'quv protsessida direktor, direktor muovini, o'qituvchilar va o'quvchilar qatnashadi. Ular faoliyati boshqaruvga ehtiyoj, umumiy rejaga, ishning mazmunini, shakl va maqsadiy aniqlashga qaratadi.

Maktabning o'quv protsessini boshqarish har xil vosita va usullar yordamida amalga oshiriladi. Bular orasida o'quv reja, ilmiy reja, tarbiyaviy va madaniy-ommobop ishlar, mavzular rejasi va dasturi, o'quvchilar, o'quvchilarni oldida turgan zamonaviy va kelajakda amalga oshiriladigan o'quv maqsadlarni qo'yish va tushuntirish, bu maqsadlarni bajarish davrida aniqlik kiritish va qo'shimcha maqsadlarni qo'yish, tajriba almashishni tashkil qilish, nazorat, yordam, o'quv protsessida hamma qatnashganlarni rag'batlantirish.

O'quv protsessini boshqarishda muxim psixologik xususiyati o'quvchining shaxs sifatida shakllantirishning maqsadi bilan munosibati va o'qituvchining faoliyati bilan, maktabni hamma sharoiti bilan va darslarni hamma turish aniqlash va amalga oshirish bilan bog'liq. O'quv protsessiga qatnashchilar-o'qituvchilar har tomonlama bilimga: gumanitar, umumta'lim, pedagogika va psixologiya, kasbiy fanlarga ega bo'lishi kerak.

Boshqaruvni samaradorligi o'qituvchini demokratik dunyo qarashiga, o'qituvchi shaxsini g'oyaviy va kasbiy yo'naltirilganligi, uning javobgarligi, o'zining ishiga qiziqishligi va moyilligi, ijodiy fikrlashligi, insonparvarligiga to'g'ridan to'g'ri bog'likdir. Yuqori darajali intizom va uyushqoqlik, talabchanlik, qo'yilgan maqsadlarni bajarilishiga doimiy nazorat qilish kerak.

Shunday qilib, boshqaruv-faoliyatini ijtimoiy shakli, ijtimoiy tizim faoliyatini takomillashtirish, tartibga solishi darajasini ko'tarish yordami bilan yo'lga solmoq.

O'quv protsessiga moslashgan boshqaruv maqsadga yo'naltirilganligini o'qituvchining o'quvchi kolektiviga, yoki yakka o'quvchiga ta'lim natijasiga erishish uchun doim ta'sir o'tkazadi.

N.Yu.Skoroxodova o'quvchilar sinfini boshqaruv ob'ekti sifatida qo'yidagi parametrlarini tariflaydi:

- **Ko'p o'lchovlik:** har bir o'quvchi - bu shaxs o'zini maqsadi, didi va qobiliyati bilan, muhimki ularni doim faol bo'lishni o'rgatish - har xil topshiriqlarni bajarish, o'quv materiallardan foydalanish, voqealardan xabardor bo'lmoq v.q.
- **Bir vaqtdalik.** O'qituvchi bir vaqta o'quv materialni tushuntiradi, ziyakligini hisobga olib, gaplashayotgan o'quvchilarni etiborsiz qoldirishmi yoki ularni to'xtatishmi; keyingi mavzuni boshlash uchun vaqt yetarligini aniqlaydi, hozir berilgan savolga kim javob berishini tanlaydi v.k.

-**Darhol va bashoratsiz.** Sinfni xayoti voqealarga boy. O'qituvchi darhol fikr bildirishi kerak tushib turgan nihoyat katta axborotga - luqma va indamaslik, kulimsirash va nizo, ranj va tushunmaslik. O'qituvchi o'quvchilar bilan doim axborot bilan almashib turadi.

-**Aloqaning ommaviyligi.** O'qituvchi va o'quvchilar doimiy ravishda o'zini ozgina "sahnada" deb sezadi. Har qaysi faollik yoki luqma atrofdagilar tomonidan baholanadi. O'quvchi har vaqt ko'rib turadi haqmi o'qituvchi, adolatlimi u, erkatoylari bormi? Ochiq aloqa qabul qilingan tartibga muvofiq ba'zi bir qoidalar bo'yicha olib boriladi. O'qituvchi ishonishi lozim, kim u yoki bu vaziyatda o'zini qanday tutishini hamma biladi.

- **Sinfni tarixini va o'quvchilarni o'zaro munosabatini hisobga olish.** O'qituvchi va o'quvchining ba'zi bir harakatining ahamiyati oldingi voqealarga bogliq. O'quvchini darsga beshinchi kechikib kelishi birinchi kechikishdan boshqacharoq qabul qilinishi kerak.

- **Yordamlashishning kerakligi, hamkorlikni tashkil qilish.** O'qituvchiga boshqaruvning muhim maqsadi - bu sinfdan o'zaro yordamni kuchaytirish orqali qo'yilgan maqsadga erishish, masalan, topshiriq ustida ishlash uchun kichik guruhlarni tashkil etish.

- **O'quv jarayonini o'ziga hos xususiyati.**

- Ongli va muntazam ta'sir ko'rsatish tabiiy regulyatsiyaga qaraganda afzalroq.

- O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida sabab va natijalik aloqa borligi.

- Boshqaruvchi o'qituvchining jo'shqinligi yoki qobiliyatligi bir holatdan boshqa holatga o'tishi.

- Ishonchlik - qobiliyat boshqaruv tizimini o'quv protsessini ma'lumot bir sharoitda topshirilgan faoliyatni bajarish.

-Barqarorlik (mustahkamlik) - tizimni belgilangan traektoriyada harakat qilinish; saqlab qolish qobiliyati, har xil ichki va tashqi achiqlanishga qaramay belgilangan reja faoliyatini qo'llash.

Samarali ta'lim protsessini boshqarish mumkin aniq talablarni bajarsa:

-o'qish maqsadini shakllantirish;

-boshqaruv protsessini boshlang'ich darajasini aniqlash;

- o'quv protsessini asosiy o'tmish holatini nazarga oluvchi ishlash dasturini rejalashtirish;
- o'quv protsessi holati to'g'risida ma'lum bir parametrlar orqali axborot olinishi;
- olingan axborotni qayta ishlash, o'quv protsessiga to'g'rilaydigan ta'sirini ko'rsatishini ishlash va

kiritish.

Tadqiqot muammoni ishlab chiqarib, yana bir marta takror boshqaruv - maxsus faoliyat shakli, ijtimoiy tizimini faoliyatini tartibga solish darajasini ko'tarish orqali takomillashtirishga qaratilgan.

Boshqaruv protsessini mazmuni shundagi, faoliyat maqsad - natija harakatga moslashi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini boshqarish uchun maktab rahbariyati, boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'limda davlat ta'lim standartlariga asosan o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga quyiladigan talablarni aniq va ravshan bilishlari lozimdir. Boshlang'ich ta'limda davlat ta'lim standartlariga asosan 1-4 sinflarda o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga quyiladigan talablar ular egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar har bir fan xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Agar ona tili o'quv predmeti bo'yicha o'quvchilar gramatik jihatdan to'g'ri yozishni, ravon fikrlab, yozma matnni tuzishni; son, ot, fe'l so'z turkumlari va boshqalarni aniqlashni bilishlari lozim bo'lsa, o'qish darolarida to'g'ri talaffuz etib o'qish va h.k., matematikadan esa sanoq texnikasini egallash, natural sonlarni o'zaro taqqoslash, matematik atamalar ma'nosini tushunish va sonli ifodalarni o'qishda ularni qo'llay olish, miqdorlar orasidagi bog'lanishlarni qo'llab, amaliy mazmundagi masalalarni yechish, geometrik figuralarga oid tevarak-atrofdagi shakllarni tanish va topa olish kabilar talab etiladi.

Tabiat o'quv fanidan esa jonli va jonsiz tabiatni tasavvur etish va bilish; o'z bilganlarini amalda qo'llay olish, inson va jamiyat sohasi bo'yicha jismoniy kamolotga oid, musiqaga oid, tasviriy san'atga oid, insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojiga oid, inson mehnati, faoliyat turlarini anglashga doir talablar qo'yilgan. Mazkur talablar bilimlarni egallab olish jarayonida bajariladi.

Amaldagi dasturlarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan bir muncha topshiriqlar keltirilgan, ammo ularning barchasi ham boshlang'ich sinf o'quvchisini ijodiy faoliyatga yo'naltiradi, deya olish qiyin. Quyida ayrim fanlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni tahlil qilamiz. Masalan, 3-4-sinflar uchun tuzilgan matematika o'quv fani dasturida o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga katta ahamiyat berilgan. Unda topqirlikka doir masalalar, mantiqiy mashqlar, geometrik shakllar yasash va ularni bir-biridan farqlash, rasmlar, modellardan, atrofdagi narsalardan eng sodda shakllarni topa olish, vaqtni idrok etish va ko'z bilan chamalashga, aqliy topqirlikka doir o'yinlar; 4-sinfda amaliy ishlar, rivojlantiruvchi mashqlar: matematik o'yinxona, matematik fokuslar, arifmetik musobaqalar, she'riy masalalar, hazil masalalarni qo'llashga yo'llanmalar berilganki, fanni o'qitishda o'quvchilarning qiziqishlari albatta, ularning ijodiy faoliyatlarini faollashtiradi.

Boshlang'ich ta'lim amaliyotini tahlil etish o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishda quyidagi jihatlariga to'liq e'tibor qaratilmasligi aniqlandi:

1) dars va darsdan tashqari faoliyatda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijodkorlikni namoyon qilish imkoniyatini bermaydi, bilish motivatsiyasi yetarlicha shakllanmagan;

2) o'qituvchining o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishga tayyorligi yetarli darajada emas, o'quvchilarda ijodiy bilish faolligini rivojlantirishda tizimli maqsadga yo'naltirilgan ish olib borilmaydi;

3) ota-onalarda bolalardagi ijodiy bilish faoliyatini rivojlantirish kompetentligining shakllanmaganligi;

4) boshlang'ich ta'limda har bir o'quvchining qiziqishlarini hisobga oladigan va ularning ijodiy bilish faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan fan to'garaklari, klublarning to'liq tashkil etilmaganligi va h.k.

Inson shaxsining har tomonlama kamol topishida, ularning bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishida, atrof-olamga munosabat shakllarini va xulqi, odob me'yorlarini egallab olishida faoliyatning o'rni katta.

Har qanday faoliyat, maqsad, uslub, natija va jarayonlardan iborat bo'ladi. U bir tomondan jismoniy harakatlarga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan aqliy harakat vositasida ongda sodir bo'ladi. Mehnat, o'yin, o'qish inson faoliyatining asosiy turlari sanaladi.

Inson faoliyati - uning rivojlanishi uchun zarur sharoit, ana shu sharoit jarayonida hayotiy tajribaga ega bo'ladi, atrof-olamni idrok etadi, bilimlarni o'zlashtiradi, malaka va ko'nikmalar hosil qiladi. Ana shular yordamida faoliyat rivojlanadi. Ijodkorlik esa sifat jihatdan yangi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayoni bo'lib, u o'zida insonning mehnatda namoyon bo'lgan qobiliyatini ifodalaydi.

Adabiyotlar

1. Ҳамроев Р. БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИ ИЖОДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ //ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА. – 2014. – Т. 22. – №. 1. – С. 53-58.
2. Adizov B. R., Khamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students //Ilmiy xabarnoma. – С. 69.
3. Kamroev A. STUDENTS'CREATIVE ACTIVITIES IN DESIGNING MOTHER TONGUE EDUCATION //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 7. – С. 285-296.
4. Хамраев А. Моделирование деятельности учителя при проектировании творческой деятельности учащихся //Педагогічні інновації: ідеї, реалії, перспективи. – 2018. – №. 2. – С. 23-26.

МАКТАБГА ТАЙЙОРЛОВ GURUHLARNI МАКТАБ ТА'ЛИМИГА СИФАТЛИ ТАЙЙОРЛАШДА ОТА-ОНАЛАР БИЛАН НАМКОРЛИК

Jalilova Gulchehra Kamolovna

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 78- DMTT tarbiyachisi

Mahmudova Sarvinov Asqarjon qizi

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 68-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Maqolada tayyorlov guruhlarida ishlashda tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi asosida bolalarni sifatli maktabga tayyorlash haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: MTT, ota-onalar hamkorligi, innovatsion metodlar, aqliy hujum metodi, AKT, maktab, bolalarni savodga o'rgatish

Аннотация: В статье рассматривается подготовка детей к качественной школе на основе сотрудничества воспитателей и родителей при подготовке подготовительных групп.

Ключевые слова: МТТ, сотрудничество родителей, инновационные методы, метод мозгового штурма, ИКТ, школа, грамотность детей

Annotation: The article discusses the preparation of children for a quality school based on the cooperation of educators and parents in the preparation of preparatory groups.

Keywords: MTT, parent collaboration, innovative methods, brainstorming, ICT, school, children's literacy

Bugungi kunda turli xil fikrlar axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan bir paytda berilayotgan axborotni keraklisini tanlab olish kerak. Har bir inson internet texnologiyalari rivojlanib borayotgan bir paytda to'g'ri fikrlashni o'rganishi zarur. Zero prezidentimiz aytganlaridek bugungi kunda diplom shart emas har inson o'z kasbini mukammal bilish zarur shundaygina ishida rivojlanish bo'ladi. Shunday ekan, har bir shaxs o'z ishiga ma'suliyat bilan yondashish zarur.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida eng avvalo tarbiyachi ma'suliyat bilan qarashlariga kundalik faoliyatida mamalakat tarqiyotiga hissa bo'lib savobli ishlarni qila olishlariga bog'liq. Jamiyatdagi tarbiyachi birinchidan o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ikkinchidan kelajak shu bolalar qolida ekanligini anglash kabi ma'suliyatli vazifani bajarayotganligini his qilish tushunchalar kiradi.

Mashg'ulot: Til va nutq, savodxonlikka o'rgatish.

Mavzu: Vatanimizning qadimiy shaharlari (Samarqand, Buxoro, Xiva)

Maqsad: Vatanimiz haqidagi tushunchalarni boyitish. Samarqand, Buxoro, Xiva haqidagi bilimlarini kengaytirish, so'zlashuv nutqini o'stirish. Fikrlash va tafakkurini o'stirish uchun sharoit yaratish. Katta va mayda motorikasini rivojlantirish.

Rivojlantirish sohalariga oid maqsadlar: Nutq, muloqot malakalari, savodxonlikka o'rgatish. Bilim jarayonini rivojlantirish, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, jismoniy rivojlantirish, ijodiy rivojlantirish.

Mashg'ulotni olib borishda qo'llaniladigan usul va metodlar: So'zlashuv, bolalarga savol berish, tushuntirish, vazifa berish, vatan haqida she'rlar, maqollar.

Multimediya: Vatanimizning qadimiy shaharlari Samarqand, Buxoro, Xivaning diqqatga sazovor joylarini tomosha qilish.

Jismoniy daqiqa: "Biz shahar b'ylab qadam bosamiz" nutqiy harakatli o'yin.

O'yin "Buzilgan telefon", "Qanotlar".

Kerakli jihoz va materiallar: O'zbekiston shaharlarining su'ratlari, O'zbekiston xaritasi, AKT, diskda slaylar, globus.

Z.Q.Hamroyeva. MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA BOLALARNING O‘QISH VA YOZISH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI	260
Husenova Aziza Sharipovna, Sharofova Feruza. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH	263
Nurova Yulduz Ubaydullayevna. PAREMALARDAGI ICHIMLIK NOMI TURLARINING ETNOLINGVISTIK TADQIQI	264
Sh.M.Farmonova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	266
Jalilova Gulchehra Kamolovna, Mahmudova Sarvinoz. MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARINI MAKTAB TA‘LIMIGA SIFATLI TAYYORLASHDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK.....	269
Jo‘rayeva Oliy Usmonjon qizi. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI ,O‘QISH DARSLARINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	271
Jurayeva Maxliyo Mirzoyena. ONA TILI DARSLARIDA TA‘LIMIY O‘YINLARNI QO‘LLASHNING AHAMIYATI.....	273
F.M.Qosimov, M.M. Qosimova. MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA MIQDOR VA SON-SANOQ TUSHUNCHASINI KIRITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	275
Шохиста Шодиевна Низомова. НУТҚ ЎСТИРИШИНИНГ ОИЛА,МАКТАБГАЧА ЁШ,МАКТАБ ЁШ ДАВРИДАГИ АҲАМИЯТИ.....	277
Axrorov Ixtiyor Doniyorovich. IKKI SONNING YIG‘INDISI (YOKI AYIRMASI) VA KARRALI NISBATIGA KO‘RA SHU SONLARNI TOPISHGA DOIR MASALALAR.....	279
Ochilova Laylo Temirpovna. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QITUVCHILARIGA PREDIKATLAR MAVZUSINI O‘RGATISH	282
Adizova Nodira Baxtiyorovna, Nazarova Marjona Xodjiyevna. O‘QUVCHILAR IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA METODIK TAVSIYALAR.....	285
Sidiqova Dilora Shavkatovna. TA‘LIMDA KOMPETENTLIK VA KOMPETENSIYA TUSHUNCHALARINING IFODALANISHI.....	286
Karimova Gulshoda Shavkatovna. BOLANI MAKTAB TA‘LIMIGA TAYYORLASHDA MTT VA MAKTAB HAMKORLIGINING VAZIFALARI	288
Nigmatova Mavjuda Maxmudovna. MAKTABGACHA TALIM MUASSASASI VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘RTASIDAGI UZVIYLIK	290
Norqulova Zarnigor. MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARI VA MAKTAB TA‘LIMI HAMKORLIGI ALOQASINING SHAKLLARI	292
Y.U.Nurova. PAREMALARDAGI OZIY-OVQAT NOMLARI ETNOLINGVISTIKA OBYEKTI SIFATIDA.....	293
Kurbonova Zilola Ismoil qizi, Safarova Mohinur. MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA 5-7 YOSHLI BOLALARNI MAKTAB TA‘LIMIGA TAYYORLASHNING ASOSIY VAZIFALARI.....	295
Qahhorova Abera Sharopovna. O‘QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASHDA XALQ OG‘ZAKI IJODINING O‘RNI	297
Jamilova Bashorat Sattorovna, Raximova Ruxsora Haydar qizi. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTEGRATSİYALASHGAN DARSLARNI TASHKILLASHTIRISHNING O‘RNI VA AHAMIYATI. 298	
Raxmonova Gullola Shavkatovna, Idiyeva Manuchexra Ikrom qizi. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA‘LIMIGA SAMARALI TAYYORLASH USULLARI.....	299
Ro‘ziyeva Nigora. 3-SINF MATEMATIKA DARSLIGIDAGI ULUSH VA KASRGA OID MASALALARNING TAHLILI.....	301
M.M.Nigmatova, Sh.J.Jo‘rayeva. MAKTABGACHA TA‘LIM VA UMUMIY O‘RTA TA‘LIMNING O‘ZARO INTEGRATSİYASI	304
Shodiyeva Fazila Xudoyqulovna. MAKTABGACHA TA‘LIM YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA‘LIMIGA TAYYORLASHDA TA‘LIM-TARBIYAVIY JARAYONNING O‘RNI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	306
Shoyeva Yulduz Amin qizi. MASALANI MUHOKAMA QILIB YECHISHNING AFZALLIKLARI VA BUNGA ERISHISH YO‘LLARI.....	307
Temirova Adolat Ubaydullayevna. BOLALARNING MATEMATIK TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	310
Shodiyeva Nigora Soliyevna. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH DARSLARIDA SHARHLAB O‘QITISHNING AHAMIYATI VA ROLI, TURSUNBOY ADASHBOYEVNING “ONA TILIM” SHE‘RI MISOLIDA.....	312